

YUNON-BAQTRIYA PODSHOHLIGI TANGALARI TO‘G‘RISIDA BA’ZI MUSHOHADALAR

Mamatqobilova Saboxat Shokir qizi, Termiz davlat universiteti
tayanch doktoranti

SOME OBSERVATIONS ON THE COINS OF THE GREECE-BACTRIA KINGDOM

Mamatqobilova Sabokhat Shakirovna, Doctoral student of
Termiz State University

НЕКОТОРЫЕ НАБЛЮДЕНИЯ О МОНЕТАХ ГРЕКО-БАКТРИЙСКОГО ЦАРСТВА

Маматкобилова Сабоҳат Шакировна, докторант Термезского
государственного университета

Annotasiya: Tariximizni o‘rganishda tangashunoslik fanining o‘rnini beqiyosdir. Maqolada Yunon-Baqtriya podsholigi tangalari va ularning klassifikatsiyasi, tangalar turlari va muomalasi Yunon-Baqtriya podsholigiga oid muhim numizmatik topilmalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar aks etgan.

Kalit so‘zlar: Yunon-Baqtriya podsholigi tangalar turlari, Ellin va Sharq madaniyati, Iskandartepa yodgorligi, Yevtidem, Demetriy.

Abstract: The role of numismatics in studying our history is incomparable. The article contains information about the coins of the Greco-Bactrian Kingdom and their classification, types and circulation of coins, and important numismatic findings related to the Greco-Bactrian Kingdom.

Key words: Types of coins of the Greco-Bactrian kingdom, Hellenic and Eastern culture, monument of Iskandartepa, Euthydemus, Demetrius.


Аннотация: Роль нумизматики в изучении нашей истории бесподобна. В статье содержатся сведения о монетах Греко-Бактрийского царства и их классификации, видах и обращении монет, а также важные нумизматические находки, связанные с Греко-Бактрийским царством.

Ключевые слова: виды монет Греко-Бактрийского царства, греческой и восточной культуры, памятник Искандартепе, Евтидем, Деметрий.

KIRISH. Eng qadimgi davlatlar joylashgan O‘zbekiston hududida ellinizm sivilizatsiyasi, hind-yevropaliklarning kelib chiqishi, dunyo dinlarining o‘zaro ta’siri va sharqning eng qadimiylarini, ularning faoliyati kabi murakkab masalalarga oydinlik kirituvchi noyob ma‘lumotlar mavjud. XIX-XX asrlarda ellistik Baqtriya tarixi Aleksandr Makedonskiy va uning vorislarining sharqqa yurishi bilan bog‘liq holda o‘rganildi. Shundan kelib chiqib,

numizmatik va yozma manbalar asosida Yunon-Baqtriya podsholigining tarixiga oid bir qancha qarashlar vujudga keldi. Bu manbalar asosida biz Ahamoniylar istibdodi va Aleksandr bosqini davrida Baqtriya o‘lkasidagi holat haqida bilimga ega bo‘lishimiz mumkin. Ellinizm tarixida Yunon-Baqtriya podsholigi yangi sahifa ochdi[3].

O‘rta Osiyo tangashunosligi tarixi bo‘yicha aytadigan bo‘lsak, hukmdor tasvirining tangalarda



<https://orcid.org/0009-0008-7071-7337>

e-mail:

sabohatmamatqobilova@gmail.com

ifodalanishi Aleksandr Makedonskiy davriga borib taqaladi. U zARB ettirgan tangalarda ilk bor podshoh va ma’bdular tasviri hamda titulini zARB ettiradi[5].

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR. Baqtriyada zARB etilgan birinchi tangalarning paydo bo‘lishi Selevkning o‘g‘li Antiox II (Spitamenning qizi Apamaning o‘g‘li) nomi bilan bog‘liqidir. Bu tangalarning nomlari ham turlicha edi. Jumladan, oltindan yasalgan tangalar stater, kumush tangalar tetradraxma, draxma va yarim draxma deb atalgan[5].

Antiox II (mil.avv.280-262-yillar) tangalarining o‘ng tomonida toj kiygan shox tasviri zARB etilgan. Tersida esa libossiz Zevs tasviri tushirilgan. O‘ng qo‘lida bir dasta chaqmoq. Chap qo‘lida esa qalqon ushlagan Zevs hamda yunon tilida “Vasilevs Antioxoy” ya’ni “Shoh Antiox” degan titul yozilgan[1].

Demetriyning keyingi hayoti qizg‘in munozaralarga sabab bo‘ldi. Strabonning “Geografiya” asarida saqlangan Artemidalik Appaladorning asaridan parcha keltirilgan: “Eng mashhurlardan biri Menandr, yana biri Baqtriya qiroli Yevtidemning o‘g‘li Demetriy. V.Tarn singari, A.K.Narayn ham Yunon-Baqtriyaning qirollari safiga Demetriy II ni kiritadi, uning faoliyatini yozma manbalarda hech qanday tarzda aks etmaydi va faqat numizmatik ma’lumotlarga ko‘ra kuzatilishi mumkin. Bu qirolni Yevtidem Ining o‘g‘li Demetriy I bilan yozma an’analar assosida bog‘lash lozim.

MUHOKAMA. Demetriy I davrida Yunon-Baqtriya hududi juda katta miqyosda kengaydi. Uning hukmronligi davrida davlat tarkibiga, Baqtriya, So‘g‘diyona, Arakosiya, Parapamisa, Gandxara va qolgan Hind havzasi kirgan. Demetriy davrida Yunon-Baqtriya nafaqat Hindistondan O‘rta Yer dengizi mamlakatlariga boradigan quruqlikdagi savdo yo‘llarini, balki Arab dengizi bo‘ylab dengiz qushlarini ham nazorat qila boshladi. Demetriy I ning Hind vodiysidagi bu muvaffaqiyatining sabablari quyidagilar. Demetriy I da oltmissiz ming jangchining borligi Yustinning so‘zlariga ko‘ra, u

Hindistonning ahamiyatli yerlarini zabit etganini tastiqlaydi.Chunki, Demetriy I Hindi Kushning g‘arbiy qismida joylashgan hududlarga egalik qilsa, uning ixtiyorida bunday sonli qirolli odamlar bo‘lishi mumkin emas. Bundan tashqari, uning hind yurishlari paytida bu hududlar Yevkratidning qo‘zg‘oloni bilan qamrab olingan edi. Demetriy unga bo‘ysungan ko‘plab mahalliy aholining manfaatlariga tayanishi kerak edi, bu to‘g‘risida hind tilida zARB ettirilgan tangalardagi yozuvlar guvohlik bermoqda. Hukmronligining so‘nggi davrlarida Demetriy I hind mol-mulkidan Yevkradit tomonidan qisman yoki butkul haydab yuborildi. Demetriy Ining hayoti qanday yakun topgani noma’lum.

NATIJALAR. Chexiya Respublikasi Karlova universiteti Klassik arxeologiya instituti tomonidan tashkil etilgan O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi 2002-yildan O‘rta Osiyo, shu jumladan, Baqtriya tarixi va arxeologiya bo‘yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Jumladan, O‘zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan 2020-2021-yillarda Iskandartepa, Mirzaliqko‘rg‘on va Darband devori kabi yodgorliklarda qazishmalar olib borildi. Jumladan, u Hindistonning ko‘pgina qismini bosib olgan. Demetriy o‘z tangalarida filning boshiga o‘xhash bosh kiyim kiygan holda tasvirlangan. Bu bilan u o‘z g‘alabalarini keng omma orasida tashviqot qilmoqchi bo‘lgan. Ma’lumki, Hindiston o‘sha vaqtarda ham fillar vatani deb atalardi. Demetriyning iyaklari og‘ir, lablari qattiq qisilgan, kichik ko‘zları ich-ichiga botgan. Uning burni katta, bo‘yni yo‘g‘on. Umuman, Demetriyning yuzida qandaydir muayyan qat’iylik, mag‘rurlik va o‘z maqsadiga erishish yo‘lidagi sabotlilik o‘z ifodasini topgan. Demetriy tangalari bizga qiziqarli yozuvlar va suratlarni taqdim etadi. Birinchi navbatda Demetriyning “yengilmas” tituli diqqatga sazovordir, ikkinchidan, ushbu hukmdorning hind va yunon tilida zARB ettirgan ikki tilli tangalari qiziqarli, uchinchidan, fil timsolli dubulg‘a kiygan holatdagi Demetriy portreti diqqatga sazovordir.

Nº	Hukmdor nomi	Qisqacha ta'rif	Og'irligi Diametri	Holati	Avers	Revers
1	Demetriy	<p>Yunon-Baqtriya tangasi</p> <p>Avers: Nuqtali halqada suverenning byusti o'ng tomonda, dubulg'a ichida, tishlari chiqib turgan fil boshi ko'rinishida, tanasi yuqoriga egilgan. Sochlar diadem bilan bog'langan, uning uchlari boshning orqasida ko'rindi.</p> <p>Revers: Yalang'och Gerakl, o'ng qo'li boshidagi diademani, yarim tushirilgan chap tomonida - tayoq va sher terisi. Vertikal holatda o'ngda ΒΑΣΙΛΕΩΣ, chapda Δημήτριος Hukmdor Demetriy afsonasi aks etgan.</p>	0,60 g	Arxeolo-gik to'liq, yaxshi		
2	Demetriy	<p>Yunon-Baqtriya tangasi</p> <p>Avers: Nuqtali halqada suverenning byusti o'ng tomonda, dubulg'a ichida, tishlari chiqib turgan fil boshi ko'rinishida, tanasi yuqoriga egilgan.</p>	0,65 g	Arxeologik to'liq, yaxshi		
3	Demetriy	<p>Yunon-Baqtriya tangasi</p> <p>Avers: Nuqtali halqada suverenning byusti o'ng tomonda, dubulg'a ichida, tishlari chiqib turgan fil boshi ko'rinishida, tanasi yuqoriga egilgan.</p>	0,65 g	Arxeologik to'liq, yaxshi		
4	Demetriy	<p>Yunon-Baqtriya tangasi</p> <p>Avers: Nuqtali halqada suverenning byusti o'ng tomonda, dubulg'a ichida, tishlari chiqib turgan fil boshi ko'rinishida, tanasi yuqoriga egilgan.</p>	0,59 g	Arxeologik to'liq, yaxshi		
5	Demetriy	<p>Yunon-Baqtriya tangasi</p> <p>Avers: Nuqtali halqada suverenning byusti o'ng tomonda, dubulg'a ichida, tishlari chiqib turgan fil boshi ko'rinishida, tanasi yuqoriga egilgan.</p>	0,82 g	Arxeolo-gik to'liq, yaxshi		

XULOSA. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Yunon-Baqtriya podshohligi davriga oid numizmatik ma'lumotlar, xususan tangalarning shakllari, ularga tushirilgan yozuvlar bizga mazkur davr tarixini yanada teranroq tadqiq qilishimizga hamda bu davrga oid yangidan-yangi ta'rixiy ma'lumotlarga ega bo'lishimizga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Беляева Т. Из казни царя Деметрия. Паз.Коммунист Таджикистана. 1978.
2. Н.Д.Двуреченская, А.Н.Горин, К.А.Шейко. Монеты из крепости Узундара (по результатам работ 2015 г.).

3. Попов А.А. Греко-Бактрийское царство. – Москва: 2008.
4. Попов А.А. Эволюция царской власти в Греко-Бактрии. Античное общество - IV: Власть и общество в античности. Материалы международной конференции антиковедов, проводившейся 5-7 марта 2001.
5. Ртвеладзе Э.В. Древние монеты Средней Азии. Из литературы. Г.Гусъяма. – Ташкент: 1987.
6. Ртвеладзе Э.В. Титулы правителей государств и владений Средней Азии в начале I тыс.до н.э // ОНУ. – 2006. – С. 46-57.

